

DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH-BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

Boltayeva Dilsora Doniyor qizi

Mir Arab Oliy madrasasi o'qituvchisi

Osiyo Xalqaro Universiteti "Dinshunoslik" fani o'qituvchisi

Diniy bag'rikenglikni ta'minlash-barqaror taraqqiyot garovi

O'zbekiston Respublikasida turli millat va elat vakillari istiqomat qilib kelmoqda. Turli millat hamda din vakillari o'rtasida bag'rikenglik hamda hamjihatlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bag'rikenglik tushunchasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "bag'rikenglik" ("tolerantlik") so'zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib "bag'rikenglik" chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muravvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin.[1]

Bag'rikenglikning ziddi sifatida murosasizlik va toqatsizlikni aytishimiz mumkin. Murosasizlik mavjud bo'lgan jamiyatda turli diniy ixtilof va fitnalar yuzaga keladi. Insoniyat XXI asrga qadam qo'ygan paytdan boshlab yer kurrasining turli mintaqalarida zo'ravonlik haddan oshib, xalqaro terrorizm kuchayganligi ham kuzatilmoqda. Hozirgi paytda ko'pincha etnik, diniy, mafkuraviy tafovutlar ekstremistik fe'l-atvor shakllari uchun bahona bo'lmoqda. Insoniyat jamiyat tinch hayotiga va xalqaro barqarorlikka tahlika solayotgan global xavf-xatarlar orasida tadqiqotchilar, avvalo, quyidagilarni ko'rsatib o'tmoqdalar:

- etnik-milliy mojarolar;
- ozchilikka nisbatan kamsituvchilik;
- irqchilik tashkilotlari va mafkuralari hamda irqiy jabr-zulm harakatlari;
- diniy ekstremizm. Bugun jahonda globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish eng dolzarb vazifalar qatorida turadi. [2]

Hozirgi kunda avj olayotgan fitnalardan biri kibermakonda sodir bo'layotgan jarayonlar misol bo'lishi mumkin. Turli ixtilofli firqalar tomonidan internet makonda din to'g'risida fikrlarning buzib talqin etilishi jamiyat hayotida o'zgacha munosabatli qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun oladigan bo'lsak, ixtilofli diniy firqalarning "onlayn diniy ulamolari" tomonidan jamiyat uchun teskari fatvo va fikrlarning virtual makonda e'lon qilinishi jamiyatdagi mavjud dinlar orasiga nifoq solinishiga hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ekstremizm va terrorizm g'oyalari bilan yo'g'rilgan deb topilgan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, tayyorlash, tarqatish va namoyish etish taqiqlangan materiallar ro'yxati e'lon qilingan. Ro'yxatda aks etgan shaxlarning ma'ruza va mavzusini eshitish, hamda ularga ergashish jamiyatdagi turli konfessiyalar o'rtasida fitnalar va kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga, diniy

adovatlarga sabab bo'лади. Shu sababli bunday ixtiloflardan uzoq turish, bunday shaxslarning da'vatlariga umuman yaqin bormaslik muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiya mavjud. Konfessiya vakillari o'z ibodat va marosimlarini bajarishiga hech kim monelik qilmaydi. Konfessiya vakillarini o'rtasida barqarorlik va hamjihatlik munosabatlarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonuni" asosiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va birodarlik ruhini qaror toptirish, millatlararo tinchlik va xotirjamlikni ta'minlashga, bu borada davlat boshqaruv organlari tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 2004 yil 23 apreldagi 196-sonli qaroriga asosan, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlarning Din ishlari bo'yicha qo'mita huzurida Konfessiyalar ishlari jamoatchilik kengashi tashkil etilgan. [3]

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi 3 yil davomida diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o'tkazilgan yalpi majlisda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.2018-yil 16-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3668-sonli Qaroriga muvofiq Qo'mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblanmish Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a'zoga – O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi.2018-yilning 16-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-sonli Farmoni imzoladi. Mazkur hujjat O'zbekistonda diniy ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan: boshlang'ich bosqichdan (o'rta maxsus islom ta'lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliy va undan keyingi diniy ta'limgacha. 2019-yil 4-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha Qo'mitaning Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston yoshlar Ittifoqi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma'rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta'minlash maqsadida

mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi. Bundan tashqari, Din ishlari bo'yicha qo'mita tarkibida ayollar bilan ishlash bo'limi tashkil etildi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlarni nazorat qiluvchi rais o'rinbosari lavozimi ham joriy etildi. Xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika targ'ibot guruhi tashkil etildi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Bahoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillarida 308 ming nafar musulmon Saudiya Arabistoniga ziyorat uchun borgan bo'lsa, shulardan 130 ming kishi "Haj", 178 ming kishi esa "Umra" amalini bajarishga muvaffaq bo'lgan. 2,5 ming xristian va yahudiylar Isroil, Rossiya, Turkiya, Italiya, Gruzziya va Yunoniston kabi davlatlarning muqaddas diniy qadamjolariga tashrif buyurganlar. [4]

Jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlashda davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qaror hamda islohotlarning ahamiyati katta. Bu qonunlar ijrosini ta'minlash, jamiyatda tinchlik hamda hamjihatlikni qaror topshirish barcha konfessiya vakillari uchun mas'liyatli vazifa bo'lib xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

[1] Ochildiyev A. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. – B.9

[2] Murtazayeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. – Toshkent: "Go to Print", 2020. – B.7

[3] Jo'rayev Sh. Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – B.56

[4] <https://strategy.uz/index.php?news=1014&lang=uz>. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik, 15 iyul, 2020y.

5. Abdixalimovich, A. F., & To'lqinovich, M. T. L. (2023). YOSH KADRLARNI O'QITISH DIDAKTIKASINING ZAMONAVIY TALABLARI. *PEDAGOG*, 6(4), 110-114.

6. Abdixalimovich, A. F. (2023). MINALI MAYDONLARDAN YO'L OCHIB O'QITISH USULLARINI O'RGANISH METODLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 65-72.

7. Abdixalimovich, A. F. (2023). YOSHLARDA HARBIY BILIM VA FAOLIYATINI SHAKILLANTIRISHNING IJTIMOIY FALSAFIY XUSUSIYATLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(22), 148-153.

8. Азимов, Ф. А. (2023). СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЕННЫХ ЗНАНИЙ И

ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У МОЛОДЕЖИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(13), 361-364.

9. Азимов, Ф. А. (2022). ПАТРИОТИЗМ ОЧЕНЬ ЦЕНИТСЯ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 975-977

10. Do'saliyeva, S. S. (2022). YOSH KIMYOGARLARNI KIMYO FANIDAN MURAKKAB MASALALARNI YECHISHIDA AMALIY BILIMLARNING AXAMIYATI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 588-590.

11. Назаров, О. М., & Дусалиева, С. Ш. К. (2022). КОМПОНЕНТНЫЙ СОСТАВ ЭФИРНОГО МАСЛА ЛИСТЬЕВ RUBUS IDAEUS L. *Universum: химия и биология*, (5-2 (95)), 34-36.

12. Ибрагимов, А. А., Дусалиева, С. Ш. К., & Тургунбаев, Ш. Ш. У. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ МИНЕРАЛЬНОГО СОСТАВА РАСТЕНИЯ CYDONIA OBLONGA MILL. МЕТОДОМ ISP-MS. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 58-61.

13. Do'saliyeva, S. S. (2023). SARIMSOQPIYOZ O'SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(15), 73-76.

14. Do'saliyeva, S. S. (2023). CYDONIA OBLONGO O'SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI. *Scientific Impulse*, 1(9), 411-413.